ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI




13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№9
2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

*Elektron nashr. 450 sahifa,*
*2-sentyabr, 2025-yil.*

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E’zoza Gapirjanovna –** O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne’matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

***TAHRIRIYAT KENGASHI A’ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G‘.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg‘izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma’murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo‘ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog‘iston)***
***Rejep O‘zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta’lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G‘afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –“Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo‘limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)***

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ
Hamkorlarimiz: O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Maktabgacha ta’lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni ........ 14
Ibragimova Gulsanam Nematovna

Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim metodikasida qo‘llanilishi va o‘qituvchi kompetentligiga ta’siri ..... 22
Abduyev Sheroz

Boshlang‘ich ta’limda “tabiatshunoslik” fanini raqamli platformalar orqali o‘qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish ........ 25
Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o‘g‘li

Ingliz va rus leksikografiyasida o‘zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili ........ 30
Bobojonova Zarina Rashidovna

Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish ........ 34
Isaqulova Baxtigul Xo‘jamovna

Frazeologizmlarni o‘rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o‘rganuvchilar tajribasi ........ 38
Jumayeva Sadbarg Mirolimovna

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili ........ 42
Karimova Moxichehra Rixsibayevna

Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi ........ 46
Kulmamatova Aziza Do‘stmamat qizi

TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish ........ 50
Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi

Raqamli ta’lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish ........ 53
Raximberganova Munojat Muzaffar qizi

Structure of Social Conflict and Stages of its Development ........ 57
Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish ........ 60
Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi

Expression of National Mental Characteristics in the Uzbek Lullaby ........ 64
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna

Bo‘lajak “texnologiya” fani o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati ........ 69
Avazov G‘oyibnazar Berdiyevich

Bo‘lajak tarbiyachilarda integratsiyalashgan ta’lim faoliyatini rivojlantirish orqali kommunikativ salohiyatini shakllantirish ........ 72
Baratova Yulduz Asadullayevna

Umumta’lim maktablarida molekulyar fizikani o‘qitishning hozirgi holati ........ 76
Boymirov Sherzod Tuxtayevich, Xudoynazarova Visola Musurmonqul qizi

Ingliz tilini o‘qitishda talabalarning mustaqil ta’lim olish kompetensiyasini akt vositasida rivojlantirish ........ 80
Ergasheva Sevaraxon Ravshanjon qizi

Maktabgacha ta’lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollari ........ 84
O‘rinova Feruzaxon O‘ljayevna, Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi

IIV litsey o‘quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari ........ 90
Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna

Improving the System of Human Resource Capacity Management in Higher Education Institutions: Evidence from Uzbekistan ........ 98
Imomov I., Umirova D.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o‘rgatishning zamonaviy usullari ........ 104
Iskandarova Munisa Bahodir qizi

Tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetentsiyasini rivojlantirish ........ 107
Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna

Maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik-psixologik usullari .............110
Jo'rayeva Nargiza Toirovna, Kamalova Sarvinoz

Blum taksonomiyasi asosida ilmiy kompetentlikni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari................113
Mustafayeva Nilufar Ulashovna

Maktabgacha yoshdagi ovoz buzulishiga ega bolalar bilan guruhli mashg'ulotlarni tashkil qilish ...............117
Umida O'tbasarova Mexmanovna, Maksudbekova Xovvajon Xamidbek qizi

Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari ....................................121
Quronova Ismigul Xolmurod qizi

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi..........................126
Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi

Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari ..........................131
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna

"Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari..........................139
Shukurova Sevara Ilhomovna

Improving High Jump Techniques ..........................143
Tajimbetov Anvar Tengelbayevich

Filologik va ijtimoiy-siyosiy fanlarda ta'lim jarayonining innovatsion metodlari..........................146
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna

Понятие логического мышления и его особенности у младших школьников..........................149
Ахмаджонова Нозима Нодиржон қизи

Интеграция психологии, обучения английскому языку, дошкольного образования и туризма: междисциплинарная модель формирующего опыта ..........................152
Омонуллаева Дилофуза Асадулла қизи

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyatida ijtimoiy motivlarni shakllantirish usullari..........................157
Abduvaxobova Nodira

Boshlang'ich ta'limda kognitiv faollikni rivojlantirishning afzalliklari..........................160
Ismailova Nozima Umaraliyevna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnni tahlil qilishga o'rgatishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati..........................164
Utanbayeva Dildora Abdixadirovna

Dorivor o'simliklar kursini o'qitish metodikasini takomillashtirishda keys texnologiyalaridan foydalanish ....168
Mirzaboyev Timur Bisenbay o'g'li

Oliy ta'lim talabalarida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyani rivojlantirish: empirik tadqiqot natijalari .................171
To'raqulov Akbar Rustam o'g'li

Gerontotexnologiya ijtimoiy-pedagogik innovatsiya sifatida ..........................175
Temirova Muyassar Abdukarim qizi

O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda Sharq mutafakkirlarining qarashlaridan foydalanish.............180
Raximova Surayyo Otabek qizi

Yoshlarni kasb tanlashda ruhiy tayyorgarlik va shaxsiy qobiliyatlarni baholash ..........................183
Biysenov Temirbek Taumuratovich

Talabalarni ta'limiy qadriyatlar asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishning ahamiyati..........................188
Choriyeva Surayyo Choriyevna

Differences Between Computer-Based and Paper-Based Assessment in Inclusive Education ..................192
Davidova Sayyora Sirojiddin kizi

Raqamli muhit sharoitida ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining pedagogik modeli va tajriba-sinov natijalari..........................196
Donayeva Nozimaxon Norbo'tayevna

Intellekt xarita yordamida o'quvchilarda "emotsional intellekt"ni rivojlantirish..........................201
G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda o'yin faoliyatining psixologik-pedagogik ahamiyati.....206
Isayeva Mushtariy Alisher qizi

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini innovatsion yondashuv asosida boshqarishning nazariy asoslari .......210
Mannanova Nargiza Xaydarovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Ingliz tilini o‘rgatishda ona tilidan keng foydalanishning salbiy va ijobiy jihatlari ........................................215
Masharipova Kumushoy Amin qizi

The Relationship Between Critical Thinking and Reading Comprehension in Primary School Students.....218
Mavlonova Dildora Shukhrat kizi

Tasviriy san’at mashg‘ulotlarida zamonaviy metodlardan foydalanish .......................................................222
N. K. Musayeva, U. O. Ziyatova

Singapurning ta’lim falsafasi: korporativ madaniyatni ma’naviy-ma’rifiy rivojlanish bilan integratsiyalash ...226
Nishonov Xayrulla Xolmirzaevich

The Anthropocentric Paradigm in Modern Linguistics: Cognitive Linguistics and Linguacultural Studies in The Study of Language, Consciousness, and Culture ........................................230
Rajabova Shaxlo Shodmonovna

Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimini rivojlantirish va uning sifatini oshirishda nostandart yondashuvning ahamiyati ...........................................................................................234
Ramazonova Salomat Saidovna

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kreativ sinflar ishini tashkil etishga tayyorlash ............................238
Saidova Gulruh Halim qizi

O‘zbek oilalarida ota-ona va farzand munosabatlarini tashxis qilishning psixologik xususiyatlari (Farg‘ona vodiysi misolida)...........................................................................................242
Turg‘unboeva Azizaxon G‘ulomovna

Сущность и специфика развития билингвизма у детей дошкольников ...............................................246
Истамова Нигора Азимжановна

Zamonaviy rahbarning innovatsion boshqarish texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari ..................249
Xakimova Dildora Mashrabjonovna

Креативный подход к развитию лингвометодического мышления студентов-филологов ...................253
Ходжаниязова Айгуль Айтмуратовна

Umumta’lim maktablarida tarbiya darslarini tashkil etish ijtimoiy zarurat sifatida ........................................257
Rashidova Gulnoza G‘ulomovna

Pedagogik risklarni boshqarishning nazariy asoslari va globallashuv jarayonidagi ahamiyati ....................261
Xaydarov Sulaymon Amirqulovich

Xronotop nazariyasiga tahliliy yondoshuvlar va qarashlar...........................................................................265
Avazov Vahabjon Tolibjon o‘g‘li

Ko‘zi ojiz bolalarning rus tili darslarida nutqiy kompetensiyasini shakllantirishning psixopedagogik asoslari ...........................................................................................268
Abduraximov Asror Sultonali o‘g‘li

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasblar haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari...........................................................................................271
Adizova Nilufar Quvondiq qizi

Zamonaviy media texnologiyalarini ta’lim jarayoniga qo‘llashning zarurati ................................................274
Alimov Asadulla Urokbayevich

Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning ta’siri .....................................................278
Alimova Umida Jumaboy qizi

Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta’lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi.....................................282
Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining rivojlanish tarixi va ommalashuvi...................................286
Hojiyeva Maftuna Ulug‘bekovna

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarida raqamli resurslardan foydalanish orqali adabiy kompetensiyani rivojlantirish ...........................................................................................289
Islomova Xafiza Azamatovna

Ona tili o‘qitish metodikasi fanidan mustaqil ta’limni tashkil etish..............................................................293
Ismadiyorova Nafisaxon Ibroximjon qizi

Axloqshunoslikning global muammolari va texnikaviy muhitning inson hayotiga ta’siri..............................298
Kozimova Nargiza Istam qizi

Ichki ishlar organlari xodimlarida kasbiy kompetentlikni oshirish va baholash usullarining xalqaro tahlili....303
Mamatqulova Sanobar Ismatillayevna, Eshmurzayev Yigitali Shokirovich, Kadirova Durdonaxon Rustamovna

Tabiiy fanlarda bilingval ta’lim va CLIL yondashuv .....................................................................................309
Mannobxonova Muqaddamxon O‘ktamxon qizi

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda pragmatik muammolar va ularning yechimlari ....................313
Maxmudova Nigoraxon Boyqo'zi qizi

Poshshoxo'ja Ibn Abduvahobxo'janing "Miftoh ul-adl" asaridagi pedagogik qarashlari ...............................317
Muzaffarova Farida Muxtor qizi

Boshlang'ich ta'lim jarayonida matn tushunishni shakllantirishda germenevtik metodlarning nazariy asoslari ......................................................................................321
Nazirova Shaxnoza Odinajon qizi

Axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirishda raqamli gigiyena va internet xavfsizligi................................324
Ramazonov Jahongir Djalolovich

Informatika fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar .............................................................................328
Sadinov Otabek Vaxodirovich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijtimoiylashuvida musiqa fanining ta'siri..................................................332
Shahobiddinova Zilola Orif qizi

Madaniy-ijtimoiy va ta'limiy omillarning bolalarning aqliy rivojlanishiga ta'siri ............................................335
Shirinov Otabek Tuvalovich

Tadqiqot metodi vositasida o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish.......................................338
Suyarov Kusharbay Tashbayevich

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasi va nutq madaniyati ................342
Saipova Hilola Abduhamitovna

"Ekologik ochiq o'yinlar" 5–7 yoshli bolalar uchun.................................................................................346
Tangirov Zoir Xo'jakulovich

Yuqori malakali taekvondochilarni o'ziga xos genetik xususiyatlarini hisobga olgan holda sport seleksiyasi .......................................................................................350
Tursunaliyev Ulug'bek Shavkatjon o'g'li

Musiqa maktabi o'quvchilarida madaniy qadriyatlar va ustoz-shogird an'analarining uzluksiz rivojlanishi ..353
Seytanov Bayrambay

Imom Buxoriyning "Al-Jome' as-sahih" asari talabalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish omili sifatida .......................................................................................356
Abduhalimova Nigora

O'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda AKT vositalaridan foydalanishning metodik asoslari.......................................................................................359
Abdullayeva Zarnigor Usubjon qizi

Коммуникативная компетентность и культура общения преподавателей начальных классов ............364
Арысланбаева Анора Бердаховна

Проблемы методической подготовки учителей в развитие дискурсивной компетенции по РКИ у учащихся уровня B1 средних общеобразовательных школ Узбекистана ..................................366
Набиева Зарнигор Муминжон кизи

"Tarbiya" darslari orqali o'quvchilarda huquqiy savodxonlikni rivojlantirish..................................................369
Atamuradov Xasan Yuldoshevich

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv ta'limga tayyorgarligi: pedagogik va psixologik asoslari .........374
Baxromova Guljamol Dilshodjon qizi

Tajriba metodlari orqali maktab o'quvchilarida tabiat hodisalarini bashorat qilish ko'nikmalarini shakllantirish.......................................................................................378
Baxtiyor Imanov, Begali Xoliqnazarov

Bo'lajak pedagoglarning tashkillashtiruvchi-boshqaruvchilik kompetentligini shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari.......................................................................................384
Japparbergenova Indira Bayramovna

Integrativ yondashuv asosida biologiya fanidan olimpiada masalalarini yechish metodikasi.......................387
Jumanov Muratbay Arepbaevich, Raxmatov Uchkun Ergashevich

Darslarni tashkil qilishda 4K modelini qo'llash imkoniyatlari.......................................................................393
Kadirov Tulkin Baxridinovich

Maktabgacha yoshdagi bolalarga tasviriy faoliyatning noodatiy usullarini o'rgatish metodikasi..................397
Maxmudova Nasiba Nurmuxammetovna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida funksional savodxonlik tushunchasini ilmiy-pedagogik asoslash masalalari .......................................................................................406
Mirzaliyeva Gulhayo Abdulazizovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

So'rovga asoslangan ta'lim texnologiyasining bosqichlari va qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish ............410
Orifjonova Iroda Orifjon qizi, Ochilova Mehrubon Suratovna

Dermatovenerologiya fanini casc (Critisize, Analyze, Summarize, Conclude) modeli orqali o'qitish va uning talabalar klinik kompetentligini oshirishdagi o'rni ............415
Po'latov Boburbek Ta'lat o'g'li

Sport faoliyatida stress holatini tadqiq etishning nazariy asoslari............419
Ruzmatova Nigina Shotilla qizi

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kreativlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish............422
Uchqunova Adiba Roziq qizi

7-sinf adabiyot darslarida nutqni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari tahlili............427
Umurova Farangiz Askarboy qizi

O'zbek tilida fe'l birikmalarining pragmatik funksiyalari va ularning ingliz tili bilan qiyosi ............430
Xudoynazarova Dildora Shonazar qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi............433
Zayniddinova Mahzuna Baxtiyorovna

Фольклор и время: формирование речевых навыков у детей начальной школы ............439
Ниязова Хилола

Xalq o'yinlari – jismoniy va ma'naviy tafakkur omili ............443
Turg'unoy Ahmadjonovna Egamberdiyeva, Ergashoy Valijonova Salimjon qizi

Использование проектной деятельности для формирования языковой компетенции ............446
Чаршамова Мехрийбан Уразбаевна



# BO‘LAJAK MAKTABGACHA TA’LIM TARBIYACHILARINI KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Uchqunova Adiba Roziq qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti
**ORCID: 0009-0005-2414-7685**

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha ta’lim sohasida bo‘lajak tarbiyachilarning kreativ salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar hamda metodlar tahlil qilinadi. Ta’lim tizimidagi islohotlar va davlat siyosati asosida kreativlikni oshirishning ahamiyati, interfaol va innovatsion metodlarning ta’lim jarayoniga tatbiqi yoritiladi. Shuningdek, metodlarni samarali rivojlantirish yo‘llari ko‘rsatilib, ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlarni keng joriy etishning muhimligi ta’kidlanadi. Mamlakatimiz maktabgacha ta’lim sohasida malakali va kreativ kadrlar tayyorlashda xorijiy tajribaga asoslangan metodikalarni takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** kreativlik, maktabgacha ta’lim tizimi, pedagogik metodlar, interfaol ta’lim, ijodiy tafakkur, innovatsion yondashuv, pedagoglarning kasbiy rivojlanishi, psixologik testlar, kreativ salohiyat, ta’limda innovatsiyalar, metodik usullar, o‘quvchilarni baholash, ta’lim jarayoni.

**Abstract:** The article analyzes modern pedagogical approaches and methods aimed at forming and developing the creative potential of future educators in the field of preschool education. It examines the importance of enhancing creativity based on reforms in the education system and state policy, as well as the application of interactive and innovative methods in the educational process. The ways of effectively developing these methods are discussed. The article highlights the significance of widely implementing innovative technologies and interactive methods in the teaching process and emphasizes improving methodologies based on foreign experience for training qualified and creative personnel in the preschool education sector of our country.

**Key words:** creativity, preschool education system, pedagogical methods, interactive learning, creative thinking, innovative approach, professional development of educators, psychological tests, creative potential, educational innovations, methodological techniques, student assessment, educational process.

**Аннотация:** В статье проводится анализ современных педагогических подходов и методов, направленных на формирование и развитие креативного потенциала будущих воспитателей в сфере дошкольного образования. Рассматривается значение повышения креативности на основе реформ в системе образования и государственной политики, а также применение интерактивных и инновационных методов в учебном процессе. Освещаются эффективные пути развития данных методов. Подчеркивается важность широкого внедрения инновационных технологий и интерактивных методов в образовательный процесс, а также акцентируется внимание на совершенствовании методик на основе зарубежного опыта в подготовке квалифицированных и креативных кадров в сфере дошкольного образования нашей страны.

**Ключевые слова:** креативность, система дошкольного образования, педагогические методы, интерактивное обучение, творческое мышление, инновационный подход, профессиональное развитие педагогов, психологические тесты, креативный потенциал, инновации в образовании, методические приемы, оценка учащихся, образовательный процесс.

## KIRISH

Bugungi kunda kreativ fikrlovchi, innovatsion yondashuvga ega bo‘lgan tarbiyachilarga ehtiyoj ortib bormoqda. O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya tizimini modernizatsiya qilish choralari doirasida maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyati ham barcha sohalar singari bosqichma–bosqich tubdan takomillashtirib borilmoqda. Ayni paytda bo‘lajak tarbiyachilarning kreativ qobiliyatini shakllantirish va zamon talablariga mos holda sohaga yetuk kadrlar tayyorlab berish har tomonlama davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. So‘nggi yillarda sohaga oid joriy etilayotgan qonun va farmonlar pedagoglarning kreativligini rivojlantirish uchun kuchli huquqiy imkoniyat yaratmoqda. Egallangan nazariy bilimlarni faoliyatga tatbiq qilish uchun metodikalar, “Ilk

qadam" dasturi hamda ilmiy-uslubiy qo'llanmalar takomillashtirilmoqda. Shu orqali bo'lajak pedagoglar ijodiy yondashuvda izchil faoliyat yuritishi va ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil etishi ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-sonli[1] Qonunda ta'kidlanishicha, maktabgacha ta'lim tizimini yagona davlat siyosati asosida tashkil etish belgilangan. Bu esa kreativ pedagogik yondashuvlarni qonun asosida joriy etish imkonini beradi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF–152–sonli[2] Farmonida ta'lim sohasiga raqamli va kreativ yondashuvlarni tatbiq etish orqali pedagoglarning salohiyatini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda. Xorij tajribalariga asoslangan fan va texnologiyalarni tatbiq etish, zamonaviy o'quv dasturlari va metodologiyalarni joriy qilish asosida pedagoglarning kreativligini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilgan. Farmon maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini takomillashtirishga qaratilgan. Uzluksiz ta'lim kurslarida kreativ metodologiyalar o'qitilishi va pedagoglar tajribasi bo'yicha seminarlar, treninglar tashkil etilishi ko'zda tutilgan [2].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliy olimlardan N. I. Sadullayeva bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarini uslubiy jihatdan ishlab chiqqan bo'lib, bunda amaliy mashg'ulotlar, interfaol metodlar va ijodiy topshiriqlarning o'rni alohida ta'kidlanadi. Shu bilan birga, Sh. Karimov innovatsion metodlar asosida ta'lim jarayonida interfaol yondashuvlarni qo'llash samaradorligini ilmiy asoslab bergan. M. Azizova esa pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslarini yoritib, ta'limda kreativlikni shakllantirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zarurligini qayd etgan.

Xalqaro tajribada ham kreativlikni rivojlantirish masalalari keng o'rganilgan. UNESCO tomonidan 2023–yilda chop etilgan "Teaching and Learning in the Digital Age" nashrida raqamli muhitda ijodiy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar keltirilgan. Torrance tomonidan ishlab chiqilgan kreativ tafakkurni baholash testlari esa bugungi kunda butun dunyo bo'yicha kreativ salohiyatni o'lchashda asosiy vosita sifatida qo'llanilib kelmoqda. Bu esa maktabgacha ta'lim tizimida xorijiy tajribalarni joriy etishning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kreativlikni shakllantirishda quyidagi metodik usullar o'z samarasini bermoqda:

1. **Muammo asosida o'qitish** – talabalarga amaliy muammolarni tahlil qilish va o'z yechimlarini taklif etish orqali mustaqil va erkin fikrlashga o'rgatadi.
2. **Rol o'ynash va dramatizatsiya metodlari** – bolalar bilan ishlashda kreativ yondashuvlar tayyorlashda talabalarni real vaziyatlarga moslashtiradi.
3. **Integrativ ta'lim** – tasviriy san'at, musiqa, atrof-muhitni o'rganish kabi sohalarni birlashtirib olib borish orqali ijodiy fikrlash shakllanadi.
4. **Yangi texnologiyalardan foydalanish** – interaktiv doskalar, mobil ilovalar va raqamli kontent orqali darslarni yanada jonli, qiziqarli tashkil etish [4].

Zamonaviy ta'lim texnologiyalarining muhim jihatlaridan biri – bu interfaol metodlardan foydalanishdir. Interfaol o'qitish deganda, o'qituvchi va talaba o'rtasida faol, o'zaro hamkorlikka asoslangan o'quv jarayoni tushuniladi. Bu yondashuv orqali talabalarda kreativ fikrlash, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish va kasbiy mustaqillik kabi muhim kompetensiyalar shakllantiriladi [3].

Interfaol ta'lim yondashuvi pedagogik kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi. U talabaning mustaqil fikrlashi, muammoni hal qilish ko'nikmasini rivojlantirish, shuningdek, innovatsion va kreativ yondashuvlarni qo'llash orqali kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim o'rin egallaydi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar ijodiy salohiyatini aniqlash va baholash uchun bir necha pedagogik va psixologik metodlardan foydalaniladi. Har bir metodning o'ziga xos yondashuvi mavjud bo'lib, ular shaxsiy kompetensiyalarni aniqlash va rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi:

1. **Suhbat metodi** – talabalarning muammoga munosabati, fikrlash darajasi va kreativ qobiliyatlari individual yoki guruhiy suhbat orqali aniqlanadi. Bu metod orqali pedagog talabaning ichki fikrlash jarayonini anglaydi.

1 O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-sonli Qonun: https://lex.uz/docs/-4646908

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF–152–sonli Farmoni: https://www.lex.uz/uz/docs/-7128182

2. **Pedagogik tahlil** – ushbu metod muayyan pedagogik hodisa yoki holatning nazariy asoslarini aniqlash, ilmiy g'oyani asoslash va nazariy yechimga yaqinlashish uchun qo'llaniladi.
3. **Kuzatish usuli** – talabaning o'quv va amaliy faoliyatdagi ishtiroki, tashabbuskorligi, mustaqil fikrlashi bevosita kuzatish orqali baholanadi.
4. **Anketa** – ochiq va yopiq savollar asosida talabalar, o'qituvchilar yoki boshqa ishtirokchilarning fikrlarini yozma tarzda olish orqali ularning pozitsiyasi aniqlanadi.
5. **Pedagogik tajriba** – ilgari surilgan g'oya va nazariyalarni amaliyotda sinab ko'rish orqali ularning samaradorligi aniqlanadi.
6. **Kvalimetriya** – kreativ kompetensiyalarni miqdoriy va sifat jihatdan baholash uchun maxsus testlar, keyslar asosida amalga oshiriladigan metod [10].
7. **Ijodiy mahsulotlarni tahlil qilish** – insho, esse, referat, loyiha kabi yozma ishlar orqali talabalar ijodiy fikrlash darajasi baholanadi.
8. **Ekspert baholash** – tajriba va malakaga ega mutaxassislar tomonidan ijodiy ishlar va tashabbuslar xolis baholanishi orqali ob'yektiv tahlil ta'minlanadi [11].

Kreativ salohiyatni aniqlashda xalqaro miqyosda tan olingan psixologik testlar keng qo'llaniladi. Ular orasida:

**Slosson aqliy salohiyat testi (Slosson Intelligence Test – SIT).** Bu test asosan og'zaki savollar orqali qisqa vaqt ichida shaxsning umumiy intellektual darajasini aniqlashga qaratilgan. So'z boyligi, mantiqiy tafakkur, matematik fikrlash va umumiy bilim darajasi asosida natijalar aniqlanadi. Test 4 yoshdan 65 yoshgacha bo'lgan shaxslar uchun mo'ljallangan. To'g'ridan-to'g'ri kreativlikni baholamasa-da, ijodiy tafakkurning asosini tashkil qiluvchi intellektual imkoniyatlar haqida muhim ma'lumot beradi [12].

Torrens testlari (Torrance Tests of Creative Thinking – TTCT). Kreativlikni baholashda eng samarali va xalqaro miqyosda tan olingan testlardan biri bu Torrens testlaridir. U 1966–yilda Ellis Paul Torrens tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, aynan ijodiy tafakkurni o'lchashga yo'naltirilgan.

Torrens testlari ikki shaklda mavjud:

- **Verbal shakl** – topshiriqlar og'zaki tarzda beriladi (masalan, "Biror narsani noodatiy tarzda qanday ishlatish mumkin?" kabi).
- **Figural shakl (Tugallanmagan rasmlar testi)** – bu shaklda ishtirokchilarga yarimta yoki chiziqli rasm beriladi va ularni to'ldirish orqali tasavvur va tafakkur aniqlanadi [13].

Torrens testining eng katta ustunligi – u bevosita talabalarning ijodiy salohiyatini, tasavvurini va noodatiy fikrlash qobiliyatini aniqlash imkonini beradi.

Yuqoridagi testlar talabalar intellektual va ijodiy salohiyatini aniqlashda muhim vositalar hisoblanadi. Slosson va Veksler testlari aqliy darajani baholashga qaratilgan bo'lsa, Torrens testlari aynan kreativlik, tasavvur va noodatiy fikrlashni aniqlovchi samarali metod hisoblanadi. Shuning uchun talabalarning ijodiy qobiliyatlarini chuqur o'rganishda ushbu testlardan kompleks yondashuv asosida foydalanish muhim ahamiyatga ega.

- Og'zaki Torrens testi – savol-javob asosida ijodiy fikrlash qobiliyatini o'lchaydi.

**Ijodiy mashqlar va amaliy faoliyat.** Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kreativligini rivojlantirishda turli mashq va topshiriqlar qo'llaniladi:

- "Quvnoq raqobat" – rasmni to'ldirish orqali bola tafakkurini rag'batlantirish;
- "Qarama-qarshi so'zlar" – o'yin orqali sabab-oqibat munosabatlarini anglash;
- Debatlar, loyihalar, portfoliolar, to'garaklar, kastinglar – hammasi kreativ muhit yaratishga xizmat qiladi [12].

## TAHLIL VA NATIJALAR

Kreativ yondashuvni rivojlantirish faqat uni qo'llash bilan cheklanmaydi. Uni baholash uchun quyidagi mezonlar asosida yondashish ham o'z natijasini isbotlamoqda:

- Yangi g'oyalarni ilgari surish qobiliyati;
- Muammoga noan'anaviy yechimlar topish;

- Mustaqil qaror qabul qilish va uni asoslab berish koʻnikmalari;
- Innovatsion vositalardan foydalana olish salohiyati [5].

Oʻtkazilgan tadqiqot natijalari ta'lim jarayonida innovatsion va interaktiv ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishning boʻlajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta'sirini isbotladi.

Oʻtkazilgan tadqiqotlar va amaliy mashgʻulotlar natijasida qoʻllanilgan metodlar – jumladan, suhbat, kuzatish, pedagogik tahlil, kvalimetriya, ijodiy mahsulotlarni tahlil qilish va psixologik testlar – har bir talabada kreativ salohiyat darajasini aniqlash hamda uni bosqichma–bosqich rivojlantirishda muhim vosita sifatida namoyon boʻldi.

Suhbat metodi orqali talabalar oʻz fikrlarini erkin bayon qilishga, oʻziga xos qarashlarini ifodalashga intilgani kuzatildi. Bu esa ularning oʻz fikriga ega boʻlishi, mustaqil mulohaza yurita olishiga turtki boʻldi.

Kuzatish va pedagogik tahlil metodlari esa talabalarning dars jarayonidagi faolligi, tashabbuskorligi, ijodiy yondashuvlari va muammolarga munosabati asosida real baholash imkonini berdi. Bu usullar, shuningdek, pedagogik vaziyatlarda qanday harakat qilayotganliklarini amaliy tarzda aniqlashga xizmat qildi.

Anketa va ekspert baholash orqali olingan ma'lumotlar talabalar fikrlarining xilma–xilligi, kreativ tafakkurga boʻlgan qiziqishi va ijodiy faoliyatga tayyorlik darajasini aniqlashga yordam berdi. Mutaxassislar tomonidan berilgan xolis baholar nazariy bilimlar va amaliy koʻnikmalar oʻrtasidagi uygʻunlikni tasdiqladi.

Ijodiy mahsulotlar tahlili natijalariga koʻra, talabalarning yozma ishlari orqali ularning oʻziga xos yondashuvlari, fikr kengligi va tasavvur darajasi yaqqol namoyon boʻldi. Ayniqsa, mustaqil ishlarda innovatsion gʻoyalarning mavjudligi ijobiy baholandi.

Kvalimetriya orqali esa oʻquvchilarning kreativ kompetensiyalari miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilindi. Natijalarda aksariyat talabalar oʻz ijodiy salohiyatini namoyon qilishga intilgani va bu jarayonda ular oʻrtasida sezilarli farqlar mavjudligi qayd etildi.

Psixologik testlar, xususan, Slosson va Torrens testlari asosida esa talabalarning intellektual va kreativ imkoniyatlari oʻzaro solishtirildi. Bu testlar orqali oʻquvchilarning tasavvur, noodatiy fikrlash, yangi gʻoya ishlab chiqish qobiliyatlari aniqlandi.

Oʻtkazilgan metodlar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, talabalarning kreativ salohiyatini aniqlash va rivojlantirishda kompleks yondashuv yuqori natijalar berdi. Har bir metodning maqsadli va tizimli qoʻllanishi talabalarda kreativ tafakkurni shakllantirish, mustaqil qaror qabul qilish va ijodiy faoliyatga jalb etishda muhim omil boʻldi. Tajriba asosida aniqlanganki, bunday yondashuvlar ta'lim sifatini oshirish bilan birga, shaxsiy rivojlanishga ham kuchli turtki beradi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida kreativ salohiyatni rivojlantirish ta'lim sifatining ajralmas elementi sifatida qaralmoqda. Oʻtkazilgan tadqiqot va amaliy mashgʻulotlar shuni koʻrsatdiki, talabalar ijodiy fikrlash darajasini aniqlash va rivojlantirishda individual va guruhiy yondashuvlar muhim oʻrin tutadi. Tadqiqotda qoʻllanilgan pedagogik va psixologik metodlar har bir talabaga nisbatan individual yondashuvni amalga oshirish imkonini berdi.

Avvalo, suhbat orqali talabalarning oʻz fikrini ifodalash, muammoni tahlil qilish va noodatiy qarorlar ishlab chiqish koʻnikmalari faollashgani kuzatildi. Bu, oʻz navbatida, talabalarda oʻziga ishonch, fikrni asoslab berish, muloqotga kirishish kabi kommunikativ kompetensiyalarning shakllanishiga xizmat qildi.

Pedagogik tahlil va kuzatish metodlari talabalar faoliyatini bevosita oʻrganish imkonini berib, ularning ijodiy yondashuvdagi faolligini koʻrsatdi. Bu metodlar orqali oʻqituvchi oʻquvchilarning ichki intilishlari, tashabbuskorlik darajasi va muammoli vaziyatlarga munosabatini chuqurroq tahlil qildi.

Shuningdek, anketa va ekspert baholash usullari orqali olingan natijalar talabalar fikrlashidagi farqlarni aniqlash va ularni guruhlar boʻyicha differensial baholash imkonini berdi. Bu usullar oʻquvchilarning fikr-mulohazalarini umumlashtirish va ob'yektiv tahlil qilishda foydali boʻldi.

Ijodiy mahsulotlar tahlili talabalar tomonidan ishlab chiqilgan insho, esse, referatlar orqali ularning tasavvur doirasi, gʻoya ishlab chiqish va ifoda qilish qobiliyatlarini aniqlashga yordam berdi. Shuni ta'kidlash joizki, ayrim talabalar ijodiy ishlarda yuqori darajada mustaqil, original yondashuvlarni namoyon etgan.

Kvalimetriya metodining qoʻllanilishi esa kreativ kompetensiyalarni miqdoriy jihatdan baholash imkonini berdi. Bu yondashuv individual va guruhiy farqlarni aniq koʻrsatdi, bu esa ta'lim mazmunini diferensiallashtirishga xizmat qildi.

Bundan tashqari, Slosson testi orqali aniqlangan intellektual salohiyat, Torrens testlari orqali baholangan ijodiy tafakkur talabalarning umumiy bilim darajasi bilan kreativ yondashuvlar oʻrtasida uzviy bogʻliqlik mavjudligini tasdiqladi. Ayniqsa, "Tugallanmagan rasm testi" orqali talabalar tasavvur kuchini keng namoyon qildi, bu esa kreativlikning bevosita koʻrsatkichi hisoblanadi.

Umuman olganda, oʻrganilgan metodlarning kombinatsiyalab qoʻllanilishi ta'lim jarayonining interfaolligini oshirdi, talabalarni passiv bilim oluvchidan faol ishtirokchiga aylantirdi. Bu esa ta'limning asosiy maqsadlaridan biri – shaxsiy rivojlanish va kasbiy tayyorgarlikka xizmat qilganini koʻrsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, metodlardan kompleks foydalanish talabalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish, mustaqil tahlil qilishga oʻrgatish hamda ularni amaliy muammolarni hal qilishga tayyorlashda muhim oʻrin tutadi. Maktabgacha taʼlim mutaxassislarini tayyorlashda kreativ kompetentlikni shakllantirish – zamonaviy taʼlimning asosiy maqsadlaridan biridir. Bu jarayonda metodik yondashuvlar, psixologik testlar, interfaol metodlar va amaliy topshiriqlar orqali shaxsning ijodiy salohiyati aniqlanib, rivojlantiriladi. Bugungi kunda taʼlim jarayonida nafaqat bilim oʻzlashtirish darajasini, balki talabalar va oʻquvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini baholash va rivojlantirish ham ustuvor yoʻnalishlardan biri hisoblanadi. Shaxsning ijodiy tafakkurini, noodatiy yechimlarni ishlab chiqish qobiliyatini aniqlashda bir qator ilmiy asoslangan testlar va metodik yondashuvlar muhim oʻrin tutadi.

Oliy taʼlim muassasalari bu borada moslashuvchan, shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim modellaridan foydalanishi lozim. Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini oʻquv jarayonida qoʻllash dunyoviy taʼlim tizimining yanada rivojlanib borayotgan asosiy tendensiyalaridan biri deb qaraladi. Bir qator rivojlangan mamlakatlarda talabalarning oʻquv va ijodiy faolliklarini rivojlantiruvchi hamda taʼlim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi interfaol metodlarni qoʻllash yuzasidan katta tajriba toʻplangan boʻlib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Taʼlim jarayonida boʻlajak maktabgacha taʼlim tashkilotlari mutaxassislarining ijodiy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan metod va innovatsion texnologiyalardan foydalanish boʻlajak tarbiyachilarning kreativlik koʻnikmalarini aniqlashga va kreativ pedagog sifatida shakllantirishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha taʼlim va tarbiya toʻgʻrisida”gi OʻRQ-595-sonli Qonun: https://lex.uz/docs/-4646908
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha taʼlim sifati va samaradorligini yanada oshirish boʻyicha qoʻshimcha chora–tadbirlar toʻgʻrisida”gi Farmoni, 2024–yil 30–sentyabr, PP–152–son.
3. N. I. Sadullayeva. Boʻlajak maktabgacha taʼlim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari (Uslubiy qoʻllanma). – 2022. – 30–bet.
4. UNESCO. Teaching and Learning in the Digital Age. – Paris: UNESCO Publishing, 2023. – 12, 34–bet.
5. Karimov, Sh. Innovatsion metodlar: taʼlimda interfaol yondashuvlar. – Toshkent: Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti nashriyoti, 2022. – 5–8–bet.
6. Azizova, M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: TDPU, 2021. – 15–18–bet.
7. Ibragimova, L. Interfaol taʼlim: nazariya va amaliyot. – Oʻzbekiston pedagogik jurnali, 2020, №4. – 7–10–bet.
8. Qurbonova, D. Suhbat metodining psixologik jihatlari. – Toshkent: TATU nashriyoti, 2023. – 3–6–bet.
9. Toʻlaganova, N. Pedagogik tahlil va ularning turlari. – Andijon Pedagogika instituti ilmiy toʻplami, 2019. – 12–14–bet.
10. Vohidov, R. Kvalimetriya asoslari. – Toshkent: OʻzR FA, 2022. – 8–11, 26–27–bet.
11. Umarova, Z. Ekspert baholash metodi: nazariya va tajriba. – Innovatsion taʼlim, 2020, №2. – 2–4–bet.
12. Slosson Educational Publications, Inc. Slosson IQ Tests. – 2019. – 9–12–bet.
13. Torrance, E. P. Torrance Tests of Creative Thinking. – Bensenville: Scholastic Testing Service, 1995. – 30–35, 48–50–bet.
14. Shamsieva, M. Kreativ oʻqituvchini shakllantirish metodlari. – TDPU ilmiy jurnali, 2021. – 14–17–bet.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. №9**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.